

**“TA’LIM SHAKLLARI: ONLINE TA’LIM VA AN’ANAVIY TA’LIMNING
AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.”**

Durdona Zaynobiddinova Nurillo qizi
O’zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti
Ingliz tili ikkinchi fakulteti 2-bosqich talabasi
zaynobiddinovadurdona05@gmail.com
Ilmiy rahbar Makhim Artikova

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada onlayn ta’lim va an’anaviy ta’lim shakllarining samaradorligi solishtiriladi.Jumladan mazu davomida onlayn ta’limning afzalliklari, kamchiliklari hamda an’anaviy talimning ijobiy va salbiy jihatlari haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO’ZLAR: onlline ta’lim, an’anaviy ta’lim, pedagogik jarayon, izalyatsiya hissi, pandemiya davri, o’qitish metodologiyasi, gibrild ta’lim.

АННОТАЦИЯ: В данной статье сравнивается эффективность онлайн-образования и традиционных форм обучения. В частности, в статье рассматриваются преимущества и недостатки онлайн-образования, а также положительные и отрицательные стороны традиционного образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: онлайн-образование, традиционное образование, педагогический процесс, чувство изоляции, период пандемии, методика обучения, гибридное образование.

ANNOTATION: This article compares the effectiveness of online education and traditional forms of education. In particular, the article discusses the advantages and disadvantages of online education, as well as the positive and negative aspects of traditional education.

KEYWORDS: online education, traditional education, pedagogical process, feeling of isolation, pandemic period, teaching methodology, hybrid education.

Hozirgi kunda eng dolzarb mavzular sirasiga “Onlayn yoki oflays ta’lim tizimi?” kabi mavzular kiradi.Bu mavzu odamlar orasida turli xil qarashlarni va konfliktlarni keltirib chiqarmoqda. Buning asosiy sabalari esa odamlardagi ta’lim afzalligiga bo’lgan tafovutli qarashlari va yosh chegaralari desak ham mubolag’a bo’lmaydi.Shuningdek, onlayn ta’lim va an’anaviy ta’lim shakllari bugungi kunda ta’lim tizimining muhim va ajralmas qismiga aylangan. Onlayn ta’limning rivojlanish tarixiga yuzlanadigan bo’lsak, pandemiya davrida onlayn ta’lim sezilarli darajada rivolanib, ommalashib, dunyo bo’ylab o’qitish metodologiyasini o’zgarishiga sabab bo’ldi. Pandemiya kabi favqulotda vaziyatlar biz insonlarga o’z imkoniyatlarimiz chegarasini cheklash bilan birga qaysidir ma’noda kengaytirishga ham yordam

berishini oflayn ta'lim tizimining doirasi favqulotda vaziyatlar uchun torligi va onlayn ta'lim tizimining ommalshishi negizida ko'rishimiz mumkin. Biroq hozirda o'quvchi va talabalarning o'z ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim shaklini tanlash imkoniyatlari mavjud. Onlayn ta'limga ehtiyoj ortishi bilan birga an'anaviy ta'lim ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, ko'plab mamlakatlarda samarali yuritilmoqda. Ushbu maqolada ikki ta'lim shaklini taqqoslash, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish maqsad qilingan.

Onlayn ta'lim tushunchasi, afzalliklari va kamchiliklari:

Onlayn ta'lim - internet orqali ta'lim olish jarayoni hisoblanadi. Bu turdag'i ta'lim o'quvchilar va talabalarga kurslar, ma'ruzalar va boshqa o'quv materiallarini internet orqali o'rghanish imkonini beradi. Shuningdek, masofaviy ta'limning quyidagicha afzallik va qulayliklari mavjud. Birinchidan, onlayn-kurslarni bandligingizga mutanosib tarzda tanlashingiz mumkin. Istalgan joyda, istalgan vaqtida shug'ullana olasiz. Deyarli hamma ta'limiy onlayn-platformalar mobil qurilmalarda ishlaydi. Qulay kiyimda, bir finjon qahva bilan ma'ruza tinglay olasiz. Yo'lga vaqt sarflash kerak emas. Bunday mayda narsalar ortiqcha zo'riqishdan asraydi. Bundan ortgan vaqt va kuchingizni boshqa foydali va qiziqarli narsalarga sarflashingiz mumkin. Keyingi masala sifat borasida esa tadqiqotlarga tayanamiz chunki tadqiqotlarga ko'ra, onlayn-ta'lim ko'pgina ko'rsatkichlarga ko'ra an'anaviy ta'limdan sifat borasida qolishmaydi. Amerika universitetlari o'qituvchilarining 77 foizi onlayn-ta'limni sifat jihatdan an'anaviy ta'lim bilan teng, ba'zida esa undan ustun deb hisoblashadi. Kursning samaradorligi asosan tinglovchiga bog'liq: masofaviy ta'lim ko'proq intizom va shaxsiy nazorat talab qiladi. Onlayn ta'lim tashkilotchilari ma'ruza yoki mahorat-darslariga turli shaharlar va mamlakatlardan o'qituvchilar va professionallarni taklif qilishi mumkin. Bu esa ta'lim hamda diplom obro'si va sifatini oshiradi. Shuningdek, ota-onalarning hammasi farzandini o'qitishni xohlaydi, biroq har kim ham obro'li maktabga yuborolmaydi yoki xususiy darslar uchun to'lov qilolmaydi. Guruhiy onlayn mashg'ulotlar qimmat repetitor xizmatlari o'rnini bosishi mumkin. Onlayn-ta'lim har kimga o'qish imkonini beradi. Ba'zilar kasallik, xizmat safarlari, tug'ruq yoki uyining cheka joydaligi, jismoniy nuqsonlari tufayli maktab, universitet va kurslarga qatnay olmasligi mumkin. Bunday hollarda internet orqali ham yaxshi ta'lim olish, yangi kasbni va zarur ko'nikmalarni egallash mumkin. Qo'shimcha qilish joizki, onlayn darslarda ishtirok etish davomida turli davlat vakillarini uchratish ehtimoli katta bu esa boshqa millat va elat vakillari bilan do'stlashish va fikr almashish imkonini beradi.

Har narsaning ijobiy va salbiy jihat bo'lganidek, onlayn ta'limning kam bir qancha kamchiliklari mavjud. Birinchi navbatda jonli muloqotning yetishmasligi elektron ta'limning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Jonli muloqotning yetishmasligi o'quvchilarni jalb qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishdan tashqari

o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari onlayn ta'limning texnalogiyalar bilan bog'liqlik jihatni borligini ham unutmasligimiz kerak. Onlayn ta'lim to'liq ishlashi uchun ishonchli va barqaror internet aloqasi va zamonaviy texnalogiyalar kerak. Afsuski barcha talabalar uchun bunday imkoniyatlar mavjud emas va qolaversa yoshi katta pedagoglarimiz zamonaviy texnalogiyadan qisman xabardor bu esa dars davomida ularga ba'zi bir anglashilmovchilik va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Keyingi masala esa dissiplina yo'qligi masalasidir. O'zini o'zi nazorat qilishini talab etuvchi onlayn talimda ko'p o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Online dars davomida o'quvchilarning chalg'ishlariga juda ko'plab faktorlar sababchi bo'ladi. Jumladan dars davomida telefon yoki kompyuter ekranida bildirish nomalar yoki qisqa reklamalar paydo bo'lishi va bu natijasida o'quvchining konsentratsiyasi bo'linishi, dars davomida diqqatini jamlay olmasligi o'tilgan mavzu bo'yicha bo'shliqlarni yuzaga keltiradi.

An'anaviy ta'lim haqida tushuncha va uning afzallik va kamchiliklari:

An'anaviy ta'lim - bu o'quvchilarni o'qituchi tomonidan sinf xonalarida dars o'tish orqali ta'lim berish shaklidir. Aytib o'tish joizki, ilk bor sinf dars atamasini fanga Kommenskiy olib kirgan. Bu turdag'i ta'limda o'quvchilar o'qituvchilar bilan onlayn ta'limdan farqli o'laroq to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lib, amaliy mashg'ulotlar , guruh o'yinlari va interaktiv faoliyatlar orqali o'qitadi. An'anaviy ta'lim tizmi ma'lum bir belgilangan vaqt va joyda o'qituvchi boshchiligi va nazoratida o'tkaziladi.

An'anaviy ta'limning afzaliklari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, to'g'ridan to'g'ri muloqot bu eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. Bu o'quvchini dars jarayoniga ko'proq jalb qilish, faolligini oshirish va boshqa o'quvchilar bilan ijtimoiy munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi. Udan tashqari talabalar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan termin, atamani o'qituvchilaridan bevosita so'rab, tezda tushunish imkiniyatiga ega bo'ladilar .An'anaviy ta'limda tahsil olishning yana bir yutuqlaridan biri bu ko'plab laboratoriya ishlari va mashg'ulotlarida qatnasha olish imkoniyati hisoblandi. Bu esa talabalarni o'rganilayotgan fan bo'yicha amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, ularning nazariy egallagan bilimlarini amaliyotga tadbiq etishga yordam beradi. An'anaviy ta'limning yana bir foydali jihatlaridan biri shundaki, ular o'z tengdoshlari bilan bevosita muloqotda bo'lishadi va guruh bo'lib ishlash ko'nikmalari va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa o'rganayotgan materiallarini yanada tezroq va osonroq o'rganishlariga yordam beradi.An'anaviy ta'limda o'qituvchi darslarni oldindan belgilangan jadvalga muvofiq o'tkazadi.Bu esa talabalarga o'quv jarayonini rejalashtirishda yordam beradi .Bu turdag'i tizim talabalarga asosan mas'uliyatni oshirishga va vaqtini doimo to'g'ri taqsimlashga yordam beradi.

Tanganing ikkinchi tomoniga yuzlanadigan bo'lsak, an'anaviy ta'limning kamchiliklari quyidagilardan iborat. Birinchidan, resurslar cheklanganligi ya'ni bazi bir bir ta'lim muassasalarida texnik resurslar cheklanganligi yoki zamonaviy o'quv

materiallari yetishmasligi ta'lim olish va berish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi holatlarni asosan chekka qishloq hududlarida ko'rishimiz mumkin. Qimmat narxlar esa bu keying masala hisoblandi. An'anaviy ta'lim onlayn ta'limga qaraganda qimmatroq bo'ladi. O'quvchi ta'lim to'lovlaridan tashqari transport va o'quv darslik uchun ham xarajatlar qiladi. Bu esa ko'p farzdanlik oilalar byujetiga ancha qisqartirishlar olib keladi. Afsuski bunday xarajatlarga hamma oilaning ham qurbi yetavermaydi. Bundan tashqari oflayn ta'lim bazi bir imkoniyati cheklagangan o'quvchilar uchun noqulayliklar olib kelishi mumkin. Ya'ni ular o'z tengqurlari yoki sinfdoshlari tomonidan kansitilishi yoki maktabda ular uchun alohida sharoitalar yaratilmagani imkoniyati cheklangan bolalar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Xulosa: Har ikki ta'lim shakli o'zining o'rni va samaradorligiga ega. Onlayn va oflayn ta'limning kombinatsiyasi (gibrildi ta'lim) talabalar uchun eng yuqori natija va ko'rsatkichlarga erishish imkonini berishi mumkin. Ta'lim jarayonini yanada samarli qilish uchun, har ikkala usulning kuchli tomonlaridan foydalangan holda qolgan kamchiliklarini kamaytirish eng yaxshi yechimlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gonzalez.T & Shaw.L (2020) ning "Online Learning in Higher Education" maqolasi.
2. Bates.A.T (2019) ning "Teaching in a Digital Age "kitobi.
3. Smith.J & Stevens.M (2018) ning "Traditional vs online Learning: A comparative Study "maqolasi
4. Harris.L (2020)."Traditional Education vs Online learning ". "Journal of Education Studies.
5. Oliygoh.uz <https://oliygoh.uz/post/onlayn-ta'limning-7-ta-afzal-jihatি> .